Xalq sözi

Özbekiston – kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRIŞ VA JAMIYATNI YUKSALTIRIŞ YILI

1991-yil 1-yanvardan çiqa boşlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 24-oktabr, № 224 (9395) Şanba

Saytimizga ötish uçun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

«ELDRIDGE INDUSTRIES» KOMPANIYASI BILAN HAMKORLIK ISTIQBOLLARI MUHOKAMA ETILDI

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev «Eldridge Industries» kompaniyasi hammuassisi, raisi va boş direktori Todd Boelini qabul qildi.



Uçraşuvda AQŞning mazkur yetakçi korporatsiyasi bilan yirik kooperatsiya loyihalarini amalga oşiriş istiqbollari körib çiqildi.

Mamlakatimiz yetakçisi hamkorlikning ustuvor yönalişlarini belgilab berdi. Xususan, toğ-kon sanoati, metallurgiya, quriliş sohalaridagi şeriklikni kengaytiriş hamda şahar infratuzilmasiga raqamli yeçimlarni joriy etiş nazarda tutilmoqda.

Muzokaralar yakunida köp qirrali hamkorlikni yanada rivojlantiriş böyiça qöşma "Yöl xaritasi"ni qabul qilişga kelişib olindi.

"Eldridge Industries" aktivlarni boşqariş, suğurta, köçmas mulk, infratuzilma, texnologiyalar, sport va media sohalarida faoliyat yurituvçi AQŞning investitsiyaviy xolding kompaniyasidir. Boşqaruvida qiymati 75 milliard dollardan ziyod aktivlar mavjud.

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

ÖZBEKISTON PREZIDENTI «ROSATOM» KORPORATSIYASI BOŞ DIREKTORINI QABUL QILDI

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev 23-oktyabr kuni «Rosatom» atom energiyasi böyiça davlat korporatsiyasi boş direktori Aleksey Lixaçyovni qabul qildi.

Uçraşuvda mamlakatimizda ilk integratsiyalaşgan atom elektr stansiyasini barpo etiş loyihasini amalga oşiriş hamda ilğor texnologiyalar va bilimlar asosida tegişli infratuzilmani rivojlantiriş masalalari diqqat markazida böldi.

Birinçi reaktor binosi poydevorini quriş hamda atom elektr stansiyasini loyihalaştiriş işlari izçil davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Sohada malakali kadrlarni tayyorlaş, bunda, jumladan, "MMFI" milliy tadqiqot yadro universitetining Toşkentdagi filiali hamda "Rosatom" kompaniyasi obyektlaridagi imkoniyatlardan foydalaniş masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Şuningdek, bölajak AES yaqinida energotejamkor uy-joylar, zamonaviy ta'lim, tibbiyot va sport muassasalari hamda aholi uçun qulay ijtimoiy infratuzilmaga ega atomçilar şaharçasini barpo etiş borasidagi hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi.

ÖzA.

IÇKI IŞLAR ORGANLARI XODIMLARI VA FAXRIYLARIGA

Hurmatli içki işlar organlari xodimlari!

Qadrli general va ofitserlar, serjant va safdorlar!

Muhtaram faxriylar!

Sizlarni Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi taşkil etilganining 35 yilligi bilan çin qalbimdan tabriklayman.

Uşbu qutluğ kunda xalqimiz osoyiştaligini ta'minlaş, fuqarolarimizning huquq va manfaatlarini himoya qiliş yölidagi sadoqatli xizmatingiz uçun barçangizga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Albatta, yurtimizda öz farzandini maktabga kuzatayotgan ota-onaning xotirjamligi, mahallalarimizdagi osoyişta hayotni mustahkamlaşda sizlarning kundalik fidokorona mehnatingiz va hissangiz borligini barçamiz yaxşi bilamiz.

Oddiy insonlarning sizga işonç bilan murojaat qilişi va bundan köngli taskin topişi – sizning xizmatingizga berilgan eng yuksak bahodir.

Ötgan öttiz beş yil davomida tizimda katta tajriba töplandi, jasorat va sadoqat an'analari şakllandi. Bugungi avlod xodimlari bu an'analarni zamonaviy bilim va yondaşuvlar asosida boyitib kelmoqda.

Joriy yilda mahallalarimizning qariyb yarmida jinoyat sodir etilmagani – içki işlar xodimlari, mahalla faollari va aholining hamkorlikdagi mehnati samarasidir. Endi bu tajribani kengaytirib, har bir mahallada xavfsiz muhit yaratiş böyiça işlarimizni izçil davom ettirişimiz zarur.

Jamoat xavfsizligini ta'minlaşda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalaniş kengaymoqda. Kiberjinoyatlarni barvaqt aniqlaş, ularning oldini oliş va fuqarolarning mol-mulkini himoya qiliş çoralari kuçaytirilmoqda.

Giyohvandlik va uyuşgan jinoyatçilikka qarşi kuraşiş, ayniqsa, yoşlarimizni bu illatlar ta'siridan asraş muhim vazifamiz bölib qolmoqda. Buning uçun zamonaviy bilim va puxta tayyorgarlik zarur. Şu bois, kadrlar tayyorlaşda nazariyani amaliyot bilan boğlaş, dual ta'limni rivojlantiriş, mahalliy va xorijiy mutaxassislar tajribasidan foydalanişga katta ahamiyat bermoqdamiz.

Milliy yuksaliş yölidagi maqsadlarimiz içki işlar organlari oldiga ham yangi vazifalar qöymoqda. Sizlardan jinoyatlarning oldini olişda taşabbuskorlik, xizmatda qat'iy intizom va halollik kutib qolaman.

"Özingni angla va özgani qadrla" degan tamoyilga amal qilgan holda faoliyat olib boriş içki işlar sohasi uçun ham muhim ahamiyatga ega. Bu – xodimning kasbiy şa'nini asraşi, qonunga qat'iy rioya etişi va har bir insonga hurmat bilan munosabatda bölişini anglatadi.

Sizga murojaat qilgan fuqaroni diqqat bilan tinglaş, uning muammosini qonuniy hal etişga kömaklaşiş xalqning tizimga bölgan işonçini mustahkamlaydi. Çunki odamlar bir xodimning muomalasi va xatti-harakatidan butun tizim haqida xulosa çiqaradi.

Bugungi kunda biz ilgari surayotgan "Öz" ğoyasi zamiridagi yurt taqdiriga daxldorlik tuyğusi sizlarning xizmatingizda ham yaqqol namoyon bölişi kerak. Har bir xonadonning osoyiştaligini öz oilangiz tinçligidek asraş – "Özimning Özbekistonim" degan iftixor hissining amaliy ifodasiga aylanişi lozim.

Bugun tizim ravnaqiga munosib hissa qöşgan faxriylarimizga alohida ehtirom bildiraman. Sizlarning hayotiy tajribangiz, ögit va maslahatlaringiz yoş xodimlar uçun katta maktabdir.

Xizmatning taşviş va mas'uliyatini sizlar bilan birga baham körayotgan ota-onalaringiz, turmuş örtoqlaringiz va farzandlaringizga ham çin dildan rahmat aytaman. Ularning mehri, sabru qanoati va qöllab-quvvatlaşi sizlarga albatta kuç-ğayrat bağişlaydi.

El-yurt tinçligini himoya qiliş yölida halok bölgan mard va fidoyi xodimlarimizning xotirasini çuqur hurmat bilan yod etamiz. Ularning jasoratini unutmaslik, oilalari va farzandlariga ğamxörlik körsatiş – bundan buyon ham barçamizning insoniy burçimiz bölib qoladi.

Sizlarni qutluğ bayramingiz bilan yana bir bor samimiy tabriklayman. Barçangizga mustahkam soğliq, xonadonlaringizga tinçlik va fayzu baraka, mas'uliyatli xizmatingizda muvaffaqiyatlar tilayman.

El-yurt osoyiştaligi yölidagi xizmatingizning qadri doimo baland bölsin!

Şavkat MIRZIYOYEV,
Özbekiston Respublikasi Prezidenti

Özbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

IÇKI IŞLAR ORGANLARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH XODIMLARNI MUKOFOTLAŞ TÖĞRISIDA

Mamlakatimiz içki işlar organlaridagi köp yillik samarali xizmati, yurtimizda jamoat xavfsizligi, xalqimiz osoyiştaligini ta'minlaş, tinçlik va barqarorlikni mustahkamlaşga qöşgan munosib hissasi, jinoyatçilikka qarşi kuraşiş, huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oşiriş, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiliş yölidagi ibratli faoliyati, öz burçini şaraf va mas'uliyat bilan ado etib, mardlik va jasorat namunasini körsatib kelayotgani, yoş avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalaş işlaridagi faol iştiroki, şuningdek, Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligining öttiz beş yilligi munosabati bilan quyidagilar mukofotlansin:

«Mehnat şuhrati» ordeni bilan

Maxmadkulov Dilşod Mavlanoviç – Sirdaryo viloyati Xovos tumani içki işlar bölimi profilaktika katta inspektori

«Mardlik» ordeni bilan

Namazov Timur Taxiroviç – Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi öta muhim işlar böyiça tezkor vakili

«Döstlik» ordeni bilan

Yesamuratova Nodira Şerdankulovna – Navoiy viloyati Içki işlar boşqarmasi öta muhim işlar böyiça tezkor vakili

Xen Vladimir Gennadyeviç – Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi Raqamli infratuzilma va axborot xavfsizligi boşqarmasi boşliği

II darajali «Salomatlik» ordeni bilan

Karimova Irina Malikovna – Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi «Özbekiston» sanatoriysi kardiologiya bölinmasi boşliği

«Jasorat» medali bilan

Ziyatov Boxodir Umaroviç – Qaşqadaryo viloyati Içki işlar boşqarmasi patrul-post xizmati batalyoni bölinma komandiri

Kamilov Timur Yusupjanoviç – Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi departament boşliği örinbosari

Mengnarov Utkirbek Yaxşibayeviç – Surxondaryo viloyati Içki işlar boşqarmasi öta muhim işlar böyiça tezkor vakili

«Sodiq xizmatlari uçun» medali bilan

Boysariyev Xusniddin Eşnazaroviç – Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi Qorovul qöşinlari harbiy qism nazoratçisi

Gaziyev Mansurbek Mamarasuloviç – Andijon viloyati Içki işlar boşqarmasi boşliği örinbosari – jamoat xavfsizligi xizmati boşliği

Djumanova Baxor Rustamovna – Toşkent viloyati Bekobod şahar içki işlar bölimi huzuridagi tergov bölimi katta tergovçisi

Miliyev Şuxrat Akmaloviç – Toşkent şahar Yaşnobod tumani böyiça Içki işlar organlari faoliyatini muvofiqlaştiriş boşqarmasi boşliği

Mirzamdamov Ozod Amanoviç – Sirdaryo viloyati Içki işlar boşqarmasi yöl harakati xavfsizligi boşqarmasi yöl-patrul xizmati inspektori

Raximov Xabibulla Şukrullayeviç – Toşkent şahar Içki işlar boş boşqarmasi yöl harakati xavfsizligi boşqarmasi yöl-patrul xizmati katta inspektori

Suleymonov Elmurod Xasanboyeviç – Namangan viloyati Çust tumani içki işlar bölimi mahalla huquq-tartibot maskani profilaktika boş inspektori

Tolegenov Şarafatdin Nizamatdinoviç – Qoraqalpoğiston Respublikasi Içki işlar vazirligi patrul-post xizmati batalyoni patrul-post xizmati inspektori

Xalimov Ulugbek Anvaroviç – Samarqand viloyati Pastdarğom tumani içki işlar bölimi boşliği

Xubbimov Nizom Rabbimoviç – Toşkent viloyati Içki işlar boş boşqarmasi boşliği örinbosari – jamoat xavfsizligi xizmati boşliği

Şadmanov Javlon Raxmatoviç – Jizzax viloyati Mirzaçöl tumani içki işlar bölimi boşliği

Ermatov Sultonbek Sayidoviç – Farğona viloyati Quva tumani içki işlar bölimi profilaktika katta inspektori

«Soğlom turmuş» medali bilan

Allanazarova Saltanat Eşdavlatovna – Surxondaryo viloyati Termiz şahar içki işlar boşqarmasi xotin-qizlar masalalari böyiça inspektori

Boğbekova Dilnoza Şonazarovna – Xorazm viloyati Içki işlar boşqarmasi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam körsatiş markazi boşliği

Muxsinova Luiza Ramazonovna – Buxoro tumani içki işlar bölimi xotin-qizlar masalalari böyiça katta inspektori

«Şuhrat» medali bilan

Axmedov Anvar Raxmatoviç – Buxoro viloyati Içki işlar boşqarmasi yöl harakati xavfsizligi boşqarmasi boşliği

Giyasova Nilufar Şasaitovna – Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati boşliği örinbosari

Daujanov Artur Userbayeviç – Qoraqalpoğiston Respublikasi Qönğirot tumani içki işlar bölimi 3-son içki işlar bölinmasi boşliği

Mamasoliyev Elyor Tursunaliyeviç – Farğona viloyati Içki işlar boşqarmasi ikkinçi mintaqaviy hudud böyiça patrul-post xizmati otryadi komandiri

Normatov Baxtiyor Soatoviç – Toşkent viloyati Zangiota tumani içki işlar boşqarmasi ekspert-kriminalistika bölimi katta eksperti

Pardayev Oybek Urinoviç – Toşkent şahar Mirobod tumani böyiça Içki işlar organlari faoliyatini muvofiqlaştiriş boşqarmasi profilaktika katta inspektori

Raximxöjayev Rustam Nişonxöjayeviç – Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi Akademiyasi kafedra boşliği

Toştemirov Zokirjon Toxiroviç – Andijon viloyati Buloqboşi tumani içki işlar bölimi profilaktika katta inspektori

Turdiyev Şerbek Nuriddinoviç – Samarqand viloyati Narpay tumani içki işlar bölimi mahalla huquq-tartibot maskani profilaktika boş inspektori

Xaydarov Şerzod Şeraliyeviç – Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi Şaxsiy xavfsizlik boş boşqarmasi Toşkent şahar böyiça boşqarmasi boşliği

Xudayqulov Suyar Suvanquloviç – Qaşqadaryo viloyati Kitob tumani içki işlar bölimi profilaktika inspektori

Ergaşov Qaxramon Omanoviç – Navoiy viloyati Içki işlar boşqarmasi yöl harakati xavfsizligi boşqarmasi yöl-patrul xizmati inspektori

Özbekiston Respublikasi Prezidenti **Ş. MIRZIYOYEV**

Toşkent şahri,
2026-yil 23-oktyabr

25-oktyabr – Özbekiston Respublikasi içki işlar organlari xodimlari kuni

XAVFSIZ MUHIT – TINÇ VA FAROVON HAYOT ASOSI

Tinçlik – eng bebaho ne'mat. Insonning ertangi kunga işonç bilan qaraşi, özini köça-köyda, jamoat joylarida hamda raqamli makonda xavfsiz his etişi, avvalambor, jamiyatda qonun ustuvorligi qay darajada ta'minlanganiga boğliq. Bu borada esa içki işlar organlari xodimlari zimmasiga alohida mas'uliyat yuklanadi.

Jamiyatda osoyiştalikni ta'minlaşga faqat içki işlar organlari, qolaversa, boşqa huquqni muhofaza qiliş idoralari xodimlarning sa'y-harakati bilangina erişib bölmaydi. Şuning uçun bunday qaraşdan bosqiçma-bosqiç voz keçilib, mazkur jarayonga bandlik, ta'lim, soğliqni saqlaş, mahalliy hokimlik, yoşlar va xotin-qizlar bilan işlaş tizimlari vakillari ham jalb etilmoqda. Çunki ularning barçasi jinoyatçilikni keltirib çiqarayotgan omillarni bartaraf qilişda öz vazifasiga ega.

2025-yildan e'tiboran har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini oliş barça darajadagi rahbarlar uçun ustuvor vazifaga aylandi. Kriminogen vaziyati oğir mahallalarga içki işlar organlari bilan bir qatorda boşqa mutasaddi taşkilotlar rahbarlari va huquq-tartibot yönalişidagi ta'lim muassasalari mas'ul qilindi. Bu masala bilan hududiy rahbar ham, tegişli hamkor taşkilotlar ham, "mahalla yettiligi"ning boşqa a'zolari ham birday şuğullanmoqda. Davlatimiz rahbari alohida ta'kidlaganidek, jinoyat sodir etilgandan keyin uning oqibatlari bilan kuraşiş emas, balki jinoyatning kelib çiqiş sabablarini ildizi bilan yöqotiş asosiy vazifaga aylandi.

➡ 2

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq sözi
2026-yil 24-oktabr

MILLIY SERTIFIKAT UÇUN ÖRIN AJRATIŞ MEZONLARI QANDAY?



Milliy sertifikat oliş imtihonlari ta'lim tizimida pedagoglar va mutaxassislarning bilim va malakasini baholaşning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Şu bois mazkur imtihonlarda iştirok etiş uçun yaratilgan şart-şaroit, xususan, röyxatdan ötiş jarayonining şaffofligi va talabgorlar uçun teng imkoniyatlarning ta'minlanişi alohida ahamiyatga ega.

Senator sörovi

Milliy sertifikat oliş imtihonlariga röyxatdan ötiş ayrim hududlarda juda qisqa vaqt içida yopilib qolgani ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolar, pedagoglar va boşqa talabgorlarning e'tirozlariga sabab bölmoqda. Xususan, röyxatdan ötişda nafaqat ariza topşirişning umumiy muddati, balki talabgor tanlagan hudud uçun ajratilgan örinlar soni ham hal qiluvçi ahamiyatga ega. Çunki umumiy muddat hali yakunlanmagan bölsa-da, muayyan hudud uçun ajratilgan örinlar tölib qolgan taqdirda uşbu hududda boşqa talabgorlar röyxatdan ötolmaydi.

Keng jamoatçilikda bunday amaliyot örinlar soni qanday mezonlar asosida belgilanayotgani, uşbu mezonlar real talabni qançalik aks ettirayotgani va talabgorlarning imtihonda qatnaşiş imkoniyatlari teng ta'minlanayotgani yoki aksinça ta'minlanmayotgani haqida asosli savollarni keltirib çiqarmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda uşbu mavzu keng muhokamaga sabab bölganligini inobatga olib, Oliy Majlis Senati a'zosi K. Tursunov Bilim va malakalarni baholaş agentligi direktori M. Karimovga senator sörovi bilan murojaat qildi.

Senator hudud va fanlar kesimida örinlar ajratişda qanday mezonlar qöllanilişi hamda röyxatdan ötiş jarayonida örinlar mavjudligi töğrisidagi ma'lumotlar oçiqligini ta'minlaş böyiça köriladigan texnik va taşkiliy çoralar yuzasidan tuşuntirişlar berişni söragan. Bundan taşqari, har bir hudud uçun örinlar sonini belgilaşda potensial talabgorlar soni hisobga olinişi, başarti bir hududda ajratilgan örinlar tölganda, boşqa hududlarda esa böş örinlar mavjud bölgan taqdirda bularni talab yuqori bölgan hududlarga qayta taqsimlaş imkoniyati bor yoki yöqligiga aniqlik kiritiş, şuningdek, qöşimça örinlar yoki qöşimça imtihonlar taşkil etiş, imtihonlar qamrovini kengaytiriş böyiça amalga oşirilayotgan çora-tadbirlar haqida asoslantirilgan javob beriş ham nazarda tutilgan.

Eslatib ötamiz, mazkur senator söroviga javob qonunda belgilangan tartibda ön kun içida beriladi.

TIL VA ZAMON:

AN'ANADAN INNOVATSIYAGA

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va soğliqni saqlaş masalalari qömitasi raisi Odiljon Mamatkarimov hamda Mudofaa va xavfsizlik masalalari qömitasi raisi örinbosari Bahrom Abdullayev Renessans universitetida Özbek tili bayramiga bağişlangan "Til va zamon: an'anadan innovatsiyaga" mavzuidagi ilmiy-ma'rifiy va madaniy tadbirda iştirok etdi.

Anjuman

Unda davlat tilining jamiyat hayotidagi örni, milliy özlikni anglaş hamda qadriyatlarni asrab-avaylaşdagi ahamiyati, şuningdek, özbek tilining ilm-fan, ta'lim va zamonaviy texnologiyalar sohasidagi imkoniyatlarini kengaytiriş masalalariga alohida e'tibor qaratildi. "Xorijiy til – imkoniyat, ona tili – qadriyat!" ğoyasi asosida xorijiy tillarni örganiş bilan bir qatorda ona tiliga hurmatni mustahkamlaş, uning boy imkoniyatlarini keng tarğib etiş va jamiyatdagi nufuzini yuksaltiriş muhimligi ta'kidlandi.

Ilmiy-ma'rifiy tadbirda sözga çiqqan senatorlar özbek tilining milliy qadriyat sifatidagi örniga, tarixiy taraqqiyoti va bugungi jamiyat hayotidagi ahamiyatiga alohida töxtaldi. Şuningdek, ona tilini asrab-avaylaş, uning ilmiy va ma'naviy salohiyatini rivojlantiriş, yoş avlod qalbida ona tiliga hurmat-ehtirom tuyğusini şakllantiriş muhim vazifalardan ekani qayd etildi.

Tadbir özbek tilining nufuzini oşiriş, milliy qadriyatlarni asrab-avaylaş, yoşlarning ma'naviy dunyoqaraşini boyitiş hamda davlat tilini zamonaviy taraqqiyot talablari asosida rivojlantirişga qaratilgan muhim taşabbuslardan biri böldi.

JSTga a'zolik:

YANGI BOZORLAR, ARZON IMPORT VA KUÇLI RAQOBAT

JSTga a'zo böliş Özbekistonning taşqi savdo imkoniyatlarini kengaytiriş, eksport salohiyati va investitsiyalar jalb etuvçanligini oşiriş, mahalliy işlab çiqaruvçilarning raqobatbardoşligini kuçaytirişda muhim ahamiyatga ega.

Senat qömitasida

Keça Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, taşqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qömitasi tomonidan Özbekiston Respublikasi Prezidentining Jahon savdo taşkiloti böyiça vakili bilan hamkorlikda "Özbekistonning Jahon savdo taşkilotiga a'zo bölişi jarayonlari va kutilayotgan amaliy natijalar" mavzuida davra suhbati bölib ötdi.

Unda Prezidentning Jahon savdo taşkiloti böyiça vakili, Özbekistonning JSTga a'zo böliş böyiça boş muzokaraçisi Azizbek Urunov mamlakatimizning mazkur taşkilotga a'zo böliş jarayonlarining joriy holati, xalqaro muzokaralar natijalari böyiça axborot berdi. Bunda JSTga a'zo bölişda tarmoqlar kesimida amalga oşirilayotgan transformatsiya jarayonlariga alohida urğu qaratildi.

Jumladan, xorijiy davlatlar bilan 40 dan ortiq muzokaralar raundi olib borilgan, 33 ta davlat bilan muzokaralar yakunlanib, 70 ga yaqin milliy qonunçilik hujjatlari JST talablari va xalqaro me'yorlarga uyğunlaştirilgan. Taşkilot qoidalariga uyğunlaştiriş doirasida intellektual mulkni röyxatga oliş jarayonlari soddalaştirilib, ortiqça eksport çeklovlari bekor qilingan.

Ta'kidlanganidek, JST a'zolari Özbekistonda bozor iqtisodiyotiga ötiş bilan boğliq jadal islohotlar amalga oşirilayotganini ijobiy e'tirof etmoqda.

Muhokamada JSTga a'zo bölişning mamlakatimiz sanoat tarmoqlari va aholi bandligiga ta'sir qilişi mumkinligi xususida ham fikr yuritildi. Import raqobati şaroitida mahalliy işlab çiqaruvçilar manfaatlarini himoya qiliş, iqtisodiy kompensatsiya taqdim etiş va maxsus himoya çoralarini qöllaş mexanizmlarini takomillaştiriş masalalariga e'tibor qaratildi.

Şuningdek, kiçik va örta biznesni yangi raqobat şaroitlariga moslaştiriş, mahsulot sifatini xalqaro standartlarga muvofiqlaştiriş va eksport bozorlariga çiqiş imkoniyatlarini kengaytiriş yuzasidan ham fikr almaşildi.

Taşqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi qonunçilikni JST qoidalari va xalqaro savdo standartlariga töliq muvofiqlaştiriş işlarini tizimli davom ettiriş, taşkilotga a'zo böliş uçun ikki va köp tomonlama muzokaralarni hamda a'zolikni rasmiylaştiriş böyiça zarur çora-tadbirlarni yakunlaş muhimligi ta'kidlandi.

«Xalq sözi».

YOŞLARNI KASB-HUNARGA YÖNALTIRIŞ MASALASI E'TIBORDA

Yoşlarni kasb-hunarga yönaltiriş, ularning qiziqiş va qobiliyatini rivojlantiriş, amaliy könikmalarini şakllantiriş orqali foydali mehnatga keng jalb etiş masalalari doimiy e'tibor markazida.

Davra suhbati

Şu maqsadda Namangan viloyatining Norin tumanidagi 41-umumta'lim maktabida yoşlarni kasb-hunarga yönaltiriş, ularda mehnatsevarlik va tadbirkorlik könikmalarini şakllantiriş mavzuiga bağişlangan davra suhbati bölib ötdi. Unda Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xöjaligi masalalari va ekologiya qömitasi a'zosi Ikromxon Najmiddinov, nuroniylar, iqtidorli yoşlar hamda keng jamoatçilik vakillari iştirok etdi.

Sözga çiqqanlar yigit-qizlarda amaliy könikmalarni şakllantiriş, jumladan, yoşlar orasida pazandaçilik, rassomlik, tikuvçilik va dizayn, duradgorlik, temirçilik kabi kasb-hunar yönalişlarini ommalaştiriş muhimligini ta'kidladi.

Şuningdek, yoş avlodni tarbiyalaşda nuroniylarning boy tajribasi va ibratli nasihatlarining ahamiyati yuksak ekani, ularning hayot yöli hamda saboqlari yoşlarning dunyoqaraşini boyitiş, milliy qadriyatlarga hurmat, mehnatsevarlik tuyğularini şakllantirişda muhimligi qayd etildi.

«Xalq sözi».

XAVFSIZ MUHIT – TINÇ VA FAROVON HAYOT ASOSI

1 Uşbu muammolarning eng xavflilaridan biri sanalgan giyohvandlik köplab jinoyatlarning "onasi"gina bölib qolmasdan, millat genofondiga ham jiddiy xavf solmoqda. Şu bois mazkur illatga qarşi kompleks kuraş olib borilmoqda. Joriy yilning 9 oyi davomida noqonuniy aylanmadan 3 tonnadan ziyod giyohvandlik vositalari, kuçli ta'sir qiluvçi 2,5 million donadan ortiq dori vositalari olib qöyildi. Toşkent şahri, Toşkent, Sirdaryo, Namangan va Andijon viloyatlarida giyohvandlik va psixotrop moddalarini işlab çiqaruvçi jami 19 ta narkolaboratoriya hamda qölda qadoqlaş sexlari aniqlanib, ularning noqonuniy harakatlariga çek qöyildi.

Tezkor zamonga mos ravişda jinoyatçilik ham rivojlanmoqda, uning yangidan-yangi turlari paydo bölyapti. Avvallari huquqbuzarliklar köpinça köça-köyda, bozorlarda, boşqa jamoat joylarida, xonadonlarda sodir etilardi. Bugungi kunda esa jinoyatçi boşqa viloyatda yoki xorijiy mamlakatda turib ham boşqalarga bir neça soniya içida internet orqali zarar yetkazişi mumkin.

Kiberfiribgarlik, soxta investitsiya platformalari, ijtimoiy tarmoqlardagi aldov, bank kartalari ma'lumotlarini qölga kiritiş, elektron tölov vositalari bilan boğliq jinoyatlar huquqni muhofaza qiluvçi organlar oldiga yangi vazifalarni qöymoqda. Qonunçilikka köra Içki işlar vazirligi kiberjinoyatlarga qarşi kuraşiş yönalişida vakolatli organ etib belgilangan. 2026-yil tizimda "Kiberjinoyatlarga qarşi kuraşiş yili" deb e'lon qilinib, aniq va maqsadli çora-tadbirlar amalga oşirilmoqda. Sun'iy intellektga asoslangan axborot tizimlari, "Kardblok" va "Turon" kabi elektron yeçimlar joriy etilib, yangi turdagi kiberjinoyatçilikka qarşi samarali kuraş olib borilyapti.

Jumladan, joriy yilning ötgan davrida 17 483 ta kiberjinoyat foş qilinib, 19 ming nafardan ortiq fuqarolarga yetkazilgan 209 mlrd. sömdan ziyod zarar qaytarilgan, internet monitoringi orqali 3192 ta xavfli resurs bloklandi, 1446 ta firibgarlikka undovçi zararli havolalar faoliyatiga çek qöyildi. Banklar, tölov tizimi operatorlari va tölov taşkilotlari zimmasiga kiberjinoyatlarning oldini oliş, mijozlarining manfaati va moliyaviy xavfsizligini ta'minlaş böyiça qat'iy javobgarlik yuklatildi.

Kiberjinoyatlarga qarşi kuraşiş samaradorligini oşiriş maqsadida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan unumli foydalanilmoqda. Tijorat banklari, tölov tizimi operatorlari va tölov taşkilotlarida "Markazlaşgan antifrod" tizimlari töliq işga tuşirildi.

Markaziy bank bilan hamkorlikda yaratilgan maxsus tizim orqali kelib tuşgan arizalar asosida ayni vaqtning özida bank kartasidan özlaştirilgan pullarni töxtatiş mexanizmi yölga qöyilgani natijasida ötgan 9 oy davomida 77 mlrd. 344 mln. söm mablağ noqonuniy çetga çiqib ketişining oldi olindi hamda 43 mingtadan ziyod jinoyatlarga aloqador bank kartalari bloklandi.

Bugun dunyo şiddat bilan özgarib, axborot texnologiyalari va global tarmoqning rivojlanişi



hayotimizga qulayliklar olib kirişi barobarida kiberhududdagi yangi xavf-xatar va tahdidlarga qarşi faol kuraşiş, ayniqsa, aholini virtual tahdidlardan himoya qiliş masalasi dolzarbligini körsatmoqda.

Joriy yilning 24-sentyabr kuni davlatimiz rahbari raisligida Andijon viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantiriş, tadbirkorlikni qöllab-quvvatlaş va aholi daromadlarini oşiriş masalalariga bağişlab ötkazilgan yiğilişda bu borada muhim va strategik topşiriqlar berildi. Unda jamoat xavfsizligini ta'minlaş va kiberjinoyatlarning oldini olişda raqamli texnologiyalardan keng foydalaniş zarurligi alohida uqtirildi. Mazkur topşiriqlarning ijrosini ta'minlaş yuzasidan keçiktirib bölmas çora-tadbirlarni belgilab oldik. Xususan, Andijon şahri, Şahrixon va Andijon tumanlari, şuningdek, Toşkent şahri va Çilonzor tumani içki işlar organlari rahbarlariga raqamlaştiriş hamda kiberjinoyatlarga qarşi kuraşiş böyiça örinbosar lavozimlari joriy etildi. Uşbu yangi rahbarlar köçalar va jamoat joylariga örnatilgan videokuzatuv kameralari ma'lumotlarini sun'iy intellekt imkoniyatlari orqali çuqur tahlil qilib, bezorilik, öğrilik va yöl-transport hodisalarini barvaqt aniqlaş, xavflarni oldindan prognozlaş hamda ularni bartaraf etiş böyiça ta'sirçan va tezkor yeçimlar işlab çiqişi lozim.

Kiberjinoyatlarning oldini olişning eng samarali vositasi aholining raqamli xavfsizlik böyiça bilimi va ogohligini oşirişdir. Har qança zamonaviy tizim yaratilmasin, agar tarğibot işlari töğri va manzilli yölga qöyilmasa, kutilgan natijaga erişiş murakkab keçadi. Şu sababli profilaktik tadbirlarni ötkazişda yuzaki yondaşuvlardan voz keçib, aholining turli qatlamlari – yoşlar, nuroniylar, tadbirkorlar va xonadon egalari bilan yakkama-yakka va tuşunarli tilda axborot beriş yölga qöyiladi.

Hozirgi davrning yana bir ötkir muammosi sanalgan odam savdosi bilan boğliq jinoyatlarning oldini oliş, unga qarşi kuraş borasida ham tizimli işlar olib borilmoqda.

Prezidentimizning tegişli farmoni asosida Odam savdosiga qarşi kuraşiş va munosib mehnat masalalari böyiça milliy komissiya taşkil etilgan bölib, içki işlar vaziri – Milliy komissiya raisining örinbosari, Odam savdosiga qarşi kuraşiş masalalari böyiça kiçik komissiya raisi hisoblanadi.

Bugungi kunda odam savdosiga qarşi kuraşiş yönalişida amalga oşirilayotgan çora-tadbirlarning natijadorligini monitoring qiliş, ayni yönalişdagi jinoyatlarni barvaqt aniqlaş va ularga çek qöyiş, mazkur turdagi jinoyatdan jabrlangan şaxslarga kömak körsatiş va asosiysi, bu boradagi işlar samaradorligini oşiriş böyiça hududiy komissiyalar va tegişli idoralar bilan faol hamkorlik yölga qöyilgan.

Içki işlar vazirligi tizimida Odam savdosiga qarşi kuraşiş boşqarmasi va uning hududiy bölimlari faoliyat olib boradi. Xodimlar tomonidan joriy yilning ötgan davri davomida 170 ga yaqin uşbu turdagi jinoiy holatlar aniqlandi. Ularning asosiy qismini ayollardan şahvoniy maqsadlarda foydalaniş uçun çet elga olib çiqib ketiş bilan boğliq holatlar taşkil etmoqda. Ötgan davrda tezkor harakatlar tufayli 63 nafar ayolning çet davlatga olib çiqib ketilişining oldi olingan. Odam savdosi bilan boğliq jinoyatlar sodir qilganligi uçun qidiruvda bölgan 10 nafar şaxs uşlangan.

Yurtimizda sönggi yillarda jinoyatçilikka qarşi kuraşiş va huquqbuzarliklarning oldini oliş borasida körilayotgan ta'sirçan çoralar öz samarasini berayotgani hamda Içki işlar vazirligi tomonidan körsatilayotgan davlat xizmatlarining kölami va sifati oşgani xalqaro miqyosda ham tan olinyapti.

Xususan, xalqaro ekspertlar hamda mahalliy mutaxassislar tomonidan joriy yil yanvar – aprel oylarida ötkazilgan Davlat boşqaruvi samaradorligini baholaş dasturi yakunlariga köra, Içki işlar vazirligi respublikadagi vazirlik va idoralar orasida davlat xizmatlarini körsatiş samaradorligi böyiça eng namunali davlat organi sifatida e'tirof etildi.

> ***"The World Justice Project" (WJP) taşkilotining "Qonun ustuvorligi indeksi" doirasida Özbekiston 8-omil – "Tartib va xavfsizlik" böyiça 2016-yilda 93-örinda turgan bölsa, 2026-yilda jahonda eng yuqori öntalikdan joy oldi. "Gallup" institutining "Qonun va tartib indeksi" sotsiologik sörovnomalariga köra, mamlakatimiz muntazam ravişda dunyodagi eng xavfsiz davlatlar qatoridan joy olib kelmoqda. Sörovnomalarda qatnaşgan yurtimiz aholisining 90 foizi yaşaş hududida tunda yolğiz yurganda özlarini butunlay xavfsiz, bexavotir his qilişini hamda içki işlar organlari xodimlariga işonişini bildirgan.***

"The World Justice Project" (WJP) taşkilotining "Qonun ustuvorligi indeksi" doirasida Özbekiston 8-omil – "Tartib va xavfsizlik" böyiça 2016-yilda 93-örinda turgan bölsa, 2026-yilda jahonda eng yuqori öntalikdan joy oldi. "Gallup" institutining "Qonun va tartib indeksi" sotsiologik sörovnomalariga köra, mamlakatimiz muntazam ravişda dunyodagi eng xavfsiz davlatlar qatoridan joy olib kelmoqda. Sörovnomalarda qatnaşgan yurtimiz aholisining 90 foizi yaşaş hududida tunda yolğiz yurganda özlarini butunlay xavfsiz, bexavotir his qilişini hamda içki işlar organlari xodimlariga işonişini bildirgan.

Davlatimiz rahbari tomonidan içki işlar organlarini aholiga sifatli xizmat körsatadigan xalqçil tuzilmaga aylantiriş vazifasi qöyilgan. Buning ijrosi Migratsiya va personallaştiriş xizmati faoliyatida ham namoyon bölmoqda. Sohadagi islohotlarning samarasi ölaroq ilk marotaba "Yagona migratsiya" axborot tizimi işga tuşirildi. Joriy yilning 1-mayidan tajriba tariqasida öz-öziga xizmat körsatiş imkonini beruvçi "Aqlli migratsiya şoxobçalari" faoliyati yölga qöyildi.

2025-yil 10-iyulda qabul qilingan "Özbekiston Respublikasi fuqarolarini, çet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bölmagan şaxslarni yaşaş joyi va turgan joyi böyiça röyxatdan ötkaziş töğrisida"gi Qonunga köra Toşkent şahri va Toşkent viloyatida doimiy yaşaş joyi böyiça röyxatga olişdagi qator çeklovlar bekor qilinib, mamlakat böylab fuqarolarni yaşaş va turgan joyi böyiça röyxatdan ötkazişning yangi tartibi joriy etildi.

Vazirlar Mahkamasining joriy yildagi "Özbekiston Respublikasi fuqarolarini yaşaş va turgan joyi böyiça röyxatdan ötkaziş hamda röyxatdan ötkazilganligini bekor qiliş tartibi töğrisidagi nizomni tasdiqlaş haqida"gi qaroriga asosan mamlakatimiz fuqarolari yangi yaşaş joyiga kelgan kundan e'tiboran ön iş kunidan keçiktirmay yaşaş yoki turgan joyi böyiça röyxatdan ötişi lozimligi belgilandi. Eski tartibga köra röyxatdan ötişda fuqarodan şaxsini tasdiqlovçi hujjatlardan taşqari uy-joyga egalik qilişni tasdiqlovçi hujjatlar talab etilardi. Endilikda murojaat qiluvçilarning pasporti yoki identifikatsiyalovçi ID-kartasi, ön olti yoşga tölmagan bola uçun tuğilganlik töğrisidagi guvohnoma taqdim etiş kifoya.

Avvalgi tartibga köra jazoni ijro qiliş muassasalariga jazoni ötaş uçun keltirilgan şaxslar turgan joyi böyiça röyxatdan ötkazilmasdan qoldirilgan bölsa, endilikda uşbu şaxslar ham migratsiya va fuqarolikni rasmiylaştiriş bölinmalari tomonidan turgan joyi böyiça röyxatdan ötkazilmoqda. Fuqarolarni köp yillar qiynab kelgan propiska, ID-karta, xorijga çiqiş pasporti oliş uçun doimiy yaşaş hududiga boriş, çet elga çiqiş uçun alohida ruxsatnoma (stiker) oliş amaliyoti bekor qilinib, uşbu hujjatlarni istalgan hududdan oliş imkoniyati yaratildi.

Içki işlar organlari tizimida kriminologik tahlil va ilmiy yondaşuvlarni kuçaytirişga ham alohida e'tibor berilmoqda. Özbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining iş boşlaşi jinoyatçilik sabablarini ilmiy asosda örganiş va profilaktika çoralarini dalillarga tayangan holda belgilaş imkonini kengaytirdi. Mahalla va xonadonlar darajasida kriminogen muhitni örganiş, "ijtimoiy profilaktika" mexanizmlarini töliq işga soliş orqali jinoyatga olib kelişi mumkin bölgan nizolar va muammolarni kurtak yozgan davridanoq hal etişga e'tibor qaratilmoqda.

Tizimdagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida yaqinda qabul qilingan muhim qonun hujjatlari içki işlar organlari faoliyatini yanada takomillaştiriş uçun huquqiy asos böldi. Ayniqsa, jamoat xavfsizligini ta'minlaş faoliyatida qator muhim yangiliklarga qöl urildi. Xususan, profilaktika inspektorlarining maqomi va mustaqilligi oşirildi. Ularga kam ahamiyatli ma'muriy va yöl harakati qoidalari bilan boğliq huquqbuzarliklar böyiça mustaqil jazo qöllaş vakolati berildi. Şu bilan birga ularni asosiy vazifasidan çalğituvçi qöşimça işlarga jalb etişga yöl qöyilmaydigan böldi.

Şuningdek, joylardagi operativ holatlar yuzasidan tezkorlik bilan çora köriş maqsadida, patrul-post va qöriqlaş xizmatlariga yöllardagi tirbandliklarni bartaraf qiliş vazifasi yuklatildi. Öz navbatida, yöl-patrul xizmati xodimlariga jamoat joylarida tartib buzilişi bilan boğliq holatlarga çek qöyiş va jazo qöllaş vakolati berildi.

Jamoatçilik nazoratining yanada samarali, ta'sirçan mexanizmlari joriy etildi. Aholi uçun "Mening inspektorim" mobil ilovasi orqali real vaqtda onlayn muloqot qiliş, muammolar haqida xabar beriş imkoniyati yaratildi. Eng muhimi, aholi öz mahallasidagi profilaktika inspektorining faoliyatiga nisbatan "işonçsizlik taşabbusi"ni bildirişi mumkin. Bu esa "xalqçil tizim" ğoyasining amaldagi tasdiğidir.

Tinçlik-osoyiştalikni ta'minlaş strategiyasi bugun zamonaviy talablar asosida butunlay yangiça bosqiçga kötarilmoqda. Asosiy e'tibor huquqbuzarliklarni keltirib çiqaruvçi omillarni, sabab va şart-şaroitlarni barvaqt aniqlaş hamda tubdan bartaraf etişga qaratilmoqda. Bugun Yangi Özbekiston içki işlar organlari zamonaviy, professional, oçiq, adolatli va eng muhimi, çinakam xalqçil tuzilma sifatida xizmat qilişga intilmoqda. Çunki tinçlik-osoyiştalikni asraş va jamiyatda xavfsiz muhitni ta'minlaş bizning eng yuksak va şarafli vazifamizdir.

Aziz TOŞPÖLATOV,
Özbekiston Respublikasi içki işlar vaziri,
general-leytenant.

TASS axborot agentligi ma'lumotiga köra, Rossiyaning Özbekistondagi Savdo vakolatxonasi huzurida Rossiya Fanlar akademiyasining vakolatxonasi oçilişi rejalaştirilmoqda.

Tanlov

YETAKÇILIK VA TAŞABBUSKORLIK NAMOYIŞI

Özbekiston Xalq demokratik partiyasi Toşkent viloyati kengaşi tomonidan "Siyosatdagi ayol" körik-tanlovining viloyat bosqiçi taşkil etildi.

Tadbirning oçilişida Oliy Majlis Senatining Yoşlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qömitasi a'zosi Malika Qodirxonova iştirok etib, mazkur körik-tanlov faol xotin-qizlarning bilim hamda tajribasini boyitiş, taşabbuslarini qöllab-quvvatlaş va siyosiy jarayonlardagi iştirokini yanada kengaytirişda muhim ahamiyat kasb etişini ta'kidladi.

Tanlov davomida iştirokçilar siyosiy va huquqiy bilimlarini, mamlakatda amalga oşirilayotgan islohotlardan, xotin-qizlarning jamiyat hamda davlat boşqaruvidagi rolidan xabardorligini, şuningdek, yetakçilik va taşabbuskorlik salohiyatini namoyon qildi. Tanlov şartlari asosida ularning bilim va könikmalari, jamoatçilik bilan işlaş tajribasi hamda öz fikrini asoslab beriş mahorati baholandi.

Yakunda ğoliblar diplom va esdalik sovğalari bilan taqdirlanib, tanlovning respublika bosqiçida iştirok etiş yöllanmasini qölga kiritdi.

Örganiş

ÖQUVÇILARNI DAVOLAŞ-SOĞLOMLAŞTIRIŞ IŞLARI TALAB DARAJASIDAMI?

Mamlakatimizda maktab öquvçilarini tasdiqlangan reja asosida har yili çuqurlaştirilgan tibbiy körikdan ötkaziş, aniqlangan kasalliklar böyiça tibbiy nazoratni taşkil etiş va soğlomlaştiriş tadbirlarining amalga oşirilişiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu kabi yumuşlar parlament nazorati doirasida Oliy Majlis Senati a'zolarining kun tartibidan ham örin olgan.

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va soğliqni saqlaş masalalari qömitasi raisi örinbosari Oral Ataniyazova boşçiligidagi işçi guruh Xorazm viloyatining Urganç şahri, Qöşköpir va Yangiariq tumanlaridagi umumta'lim maktablarida öquvçilarga birlamçi tibbiy-sanitariya yordami körsatiş va profilaktik tadbirlarni taşkil etiş usullari bilan tanişdi. Jarayonda uşbu hududlardagi qator ta'lim dargohlarida tibbiy xonalarning sanitariya qoidalari va gigiyenik talablarga muvofiqligi, zarur tibbiy jihozlar hamda dori vositalari bilan ta'minlanganligi örganildi va sohada amalga oşirilgan işlar bilan birga ayrim kamçiliklar mavjudligi ham ma'lum böldi.

Jumladan, ba'zi maktablarda öquvçilarni çuqurlaştirilgan tibbiy tekşiruv işlari belgilangan talablar darajasida olib borilmagan. Har bir öquvçi yiliga bir marta körikdan ötkazilişi lozim bölsa-da, ayrim ta'lim muassasalarida bunday tadbirlar ikki yilda bir marta ötkazilayotgani aniqlandi. Bundan taşqari, tibbiy köriklar davomida kasallik aniqlangan öquvçilarni dispanser nazoratiga oliş, ularning salomatligini muntazam kuzatib boriş, davolaş-soğlomlaştiriş tadbirlarini taşkil etiş işlari yetarli darajada yölga qöyilmagan.

Örganiş natijalari böyiça mas'ullarga tibbiy köriklarni belgilangan muddatlarda va sifatli ötkaziş, kasallik aniqlangan öquvçilarni dispanser nazoratiga oliş hamda ularni soğlomlaştiriş işlarini kuçaytiriş yuzasidan tavsiyalar berildi.

Tadbir

EKOLOGIK MUAMMOLAR YEÇIMIGA ILĞOR YONDAŞUV

Ekologik xavfsizlikni ta'minlaş, tabiiy resurslardan oqilona foydalaniş va yoşlarda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni şakllantiriş hamda Özbekiston va Koreya Respublikasi örtasidagi döstlik aloqalarini rivojlantirişga bağişlangan tadbir bölib ötdi.

Unda Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xöjaligi masalalari va ekologiya qömitasi raisi örinbosari Sayyora Abdikarimova iştirok etdi.

Tadbirda yoşlarning ekologik loyihalar va köngillilik harakatlaridagi iştirokini kengaytiriş, taşabbuslarini qöllab-quvvatlaş, şuningdek, ikki mamlakat yoşlari örtasida tajriba almaşişni rivojlantirişga e'tibor qaratildi.


Muloqot yakunida ekologik muammolarga yeçim topişda xalqaro hamkorlikni mustahkamlaş, yoşlarning innovatsion ğoyalaridan samarali foydalaniş va ekologik loyihalarni amalga oşirişda ilğor xorijiy tajribani tatbiq etiş masalalari böyiça takliflar işlab çiqildi.

«Xalq sözi».

Oliy Majlis Qonunçilik palatasi Kengaşida

Qonun ijodkorligi va parlament nazorati:

NATIJALAR VA VAZIFALAR



Oliy Majlis Qonunçilik palatasi Kengaşi yiğilişida Korrupsiyaga qarşi kuraşiş va sud-huquq masalalari qömitasining 2026-yil töqqiz oydagi faoliyati yakunlari muhokama qilindi. Unda qonun ijodkorligi samaradorligini oşiriş, korrupsiyaga qarşi kuraşiş, sud-huquq yönalişidagi islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlaş hamda qonunlar ijrosi ustidan parlament nazoratini kuçaytiriş borasidagi işlar körib çiqildi.

Hisobot davrida qömita 31 ta qonun loyihasi hamda 4 ta jamlama qonun loyihasi uçun mas'ul böldi. Ularning 29 tasi Qonunçilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan. Şuningdek, qömita a'zolarining qonunçilik taşabbusi huquqi asosida işlab çiqilgan uçta qonun loyihasi ham qabul qilingan.

Mazkur qonunlar sud-huquq tizimini takomillaştiriş, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining sud orqali himoyalaniş imkoniyatlarini kengaytiriş, narkotiklar va kuçli ta'sir etuvçi moddalarning qonunga xilof muomalasi uçun javobgarlikni takomillaştiriş, korrupsiyaga qarşi kuraşiş samaradorligini oşiriş hamda parlament nazoratining huquqiy asoslarini mustahkamlaşga qaratilgan. Jumladan, "Sudyalar hamjamiyati organlari töğrisida", "Sud hokimiyati organlari faoliyatini moliyalaştiriş töğrisida" va "Sudyaning maqomi töğrisida"gi qonunlar sudyalarning huquqiy, moddiy va ijtimoiy kafolatlarini mustahkamlaş, sud hokimiyati organlarining taşkiliy-huquqiy asoslarini takomillaştirişga xizmat qiladi.

Qonun loyihalarini sifatli işlab çiqiş va puxta takomillaştiriş maqsadida hisobot davrida 95 ta işçi guruh yiğilişi ötkazilgan. Muhokamalarda deputatlar, mutaxassislarning fikr-mulohazalari, siyosiy partiyalar fraksiyalarining takliflari hamda sohaviy yondaşuvlar inobatga olingan.

Qömita faoliyatining muhim yönalişlaridan biri qonunlar va qonunosti hujjatlari ijrosini örganiş, davlat organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oşirişga qaratildi. Hisobot davrida şu maqsadda törtta nazorat-tahlil tadbiri ötkazilgan. Jumladan, Kadastr agentligi tizimida korrupsiyaga qarşi kuraşiş böyiça işlar Qaşqadaryo va Farğona viloyatlari misolida örganildi. Natijada aniqlangan kamçiliklarni bartaraf etiş yuzasidan taklif va tavsiyalar işlab çiqilib, qömita qarori asosida tegişli çoralar körildi. Xususan, kadastr organlariga işga qabul qilişdan oldin nomzodlarni komplayens xizmati tomonidan çuqur örganiş amaliyoti yölga qöyildi. Tizimda manfaatlar töqnaşuvining oldini oliş böyiça agentlik rahbarining buyruği imzolandi. Korrupsiya haqida xabar beriş uçun 1097 raqamli "Işonç telefoni" töliq işga tuşirildi. Davlat xizmatlarini körsatişdagi byurokratik tösiqlarni kamaytiriş va ayrim huquqbuzarliklarning oldini olişni rağbatlantirişga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ham tayyorlandi. Masalan, yer uçastkasini özboşimçalik bilan egallaşni birinçi marta sodir qilgan şaxs yer uçastkasini qaytarsa va huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etsa, uni javobgarlikdan ozod qilişga oid taklif işlab çiqildi.

Hisobot davrida korrupsiyaga qarşi kuraşiş töğrisidagi milliy ma'ruza ham körib çiqilib, uning natijalari böyiça tegişli qarorlar qabul qilingan. Yoşlar örtasida jinoyatçilikning oldini oliş, notarial xizmatlarning sifati va şaffofligini ta'minlaş, intellektual mulk böyiça huquqlarni himoyaga oliş masalalari ham parlament nazorati doirasida körib çiqildi.

Qömita faoliyatida xalq bilan muloqotni kengaytiriş va fuqarolarni qiynayotgan muammolarni örganişga ham e'tibor qaratildi. Töqqiz oy davomida qömitaga kelib tuşgan 2 548 ta murojaat belgilangan tartibda körib çiqilgan. Bu ötgan yilning şu davridagi körsatkiçdan qariyb ikki baravar köp. Murojaatlarning 1 459 tasi qonunçilik va sud-huquq sohasiga, 565 tasi mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga, 190 tasi ijtimoiy sohaga, 85 tasi moliya yönalişiga, 249 tasi boşqa masalalarga taalluqli.

E'tiborli jihati, fuqarolar murojaatlarida nafaqat muayyan muammolarni hal etiş, balki amaldagi qonun hujjatlarini takomillaştirişga doir takliflar ham bildirilmoqda. Hisobot davrida uçta kodeks va ikkita qonunga özgartiriş hamda qöşimçalar kiritiş böyiça jami 82 ta taklif kelib tuşgan. Bu aholi bilan muloqotni qonun ijodkorligi jarayoni bilan uzviy boğlaş, joylarda kötarilayotgan masalalarning tizimli sabablarini aniqlaş va ularga huquqiy yeçim topiş zarurligini körsatmoqda.

Kengaşda qömita faoliyati natijalari bilan birga, hali yeçimini kutayotgan masalalarga ham e'tibor qaratildi. Xususan, deputatlarning qonunçilik taşabbusi huquqidan foydalanişini yanada faollaştiriş, qonun loyihalarining sifatini oşiriş, parlament nazorati tadbirlari qamrovini kengaytiriş hamda qabul qilingan qarorlar ijrosi ustidan muntazam monitoring olib boriş zarurligi ta'kidlandi.

Şuningdek, fuqarolar tomonidan bildirilayotgan qonunçilik takliflarini ularning iştirokida muhokama qiliş, hududlardagi tizimli muammolarni mas'ul vazirlik va idoralar vakillari bilan birgalikda körib çiqiş hamda parlament nazorati natijadorligini oşiriş ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Muhokama yakunida qömitaning 2026-yil töqqiz oydagi faoliyati töğrisidagi axborot ma'lumot uçun qabul qilindi. Qömitaga qonun loyihalarini takomillaştirişda jamoatçilik iştirokini kengaytiriş, davlat organlari mansabdor şaxslarining axborotlarini eşitiş amaliyotini davom ettiriş, fuqarolar murojaatlarida kötarilgan muammolar yuzasidan ta'sirçan parlament nazoratini amalga oşiriş böyiça tegişli vazifalar yuklatildi.

Odil sudlovga işonç – qonun ustuvorligi mezoni

Jahongir ŞIRINOV, qömita raisi:



– Qonunning haqiqiy qiymati uning hayotda qanday işlaşida namoyon böladi. Fuqaro öz huquqini himoya qiliş uçun sudga murojaat etganida ortiqça ovoragarçilikka duç kelmasa, işi xolis körib çiqilişiga va adolat qaror topişiga işonsa, qonun ustuvorligi amalda ta'minlanadi. Şu bois sud-huquq islohotlarining boş maqsadi – inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini işonçli himoya qiliş.

Sud himoyasini kuçaytiriş va sud hokimiyati mustaqilligining kafolatlarini mustahkamlaş qonunçilikdagi muhim vazifalardan biridir. Bu borada qömita mas'ulligida qabul qilingan "Sudyalar hamjamiyati organlari töğrisida", "Sud hokimiyati organlari faoliyatini moliyalaştiriş töğrisida" hamda "Sudyaning maqomi töğrisida"gi qonunlar alohida ahamiyatga ega. Uşbu qonunlar sudyalarning huquqiy va ijtimoiy kafolatlarini mustahkamlaş, sud hokimiyati organlarining taşkiliy asoslarini takomillaştirişga qaratilgan. Bu – sud sohasidagi islohotlar uçun zarur huquqiy zaminni mustahkamlaş yölidagi amaliy qadamlardan biridir.

Qonunlarning samaradorligi ularning amaliyotdagi natijasi va aholi uçun yaratadigan imkoniyatlari bilan belgilanadi. Şuning uçun sudga oid qonunçilik yeçimlarini baholaşda fuqarolar va tadbirkorlarning huquqlari qançalik işonçli himoya qilinayotgani, sud jarayonlarida qonuniylik va xolislik qay darajada ta'minlanayotgani muhimdir.

Bu vazifalar sud-huquq yönalişidagi islohotlarning keyingi bosqiçida ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. 2026-yil 14-avgust kuni Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev sud tizimi rahbarlari bilan uçraşib, islohotlar natijalari va sohadagi ustuvor vazifalarni muhokama qildi. Uçraşuvda sudlar faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirişga qaratilgan "Odil sudlov – 2030" strategiyasi loyihasi taqdim etildi. U sud tizimini rivojlantirişning uzoq muddatli yönalişlarini belgilaş va odil sudlov mexanizmlarini takomillaştirişni közda tutadi.

Strategiyaning ahamiyati sud sohasidagi özgarişlarni aniq maqsadlar va bosqiçma-bosqiç vazifalar asosida amalga oşirişda namoyon böladi. Fuqarolar uçun bu, eng avvalo, sudga murojaat qilişni osonlaştiriş, vaqt va xarajatni tejaş, işlarni xolis körib çiqiş hamda huquqiy himoya imkoniyatlarini kengaytirişda körinadi.

Masalan, ariza notöğri sudga berilgani uçun uni qaytariş örniga tegişli sudga yönaltiriş taklifi fuqarolarni ortiqça sarsongarçilikdan xalos etişi mumkin. Sud xizmatlaridan elektron şaklda foydalaniş imkoniyatlarini kengaytiriş vaqtni tejaydi va jarayonlarni qulaylaştiradi. Işlarni xolis körib çiqiş hamda sudyalar odil sudlovni amalga oşirişi uçun zarur şaroitlarni yaratiş ham muhim ahamiyatga ega.

Belgilangan maqsadlarni qonunçilikda izçil aks ettiriş va ularni amalga oşiriş uçun zarur huquqiy asoslarni takomillaştiriş muhim. Deputatlarning vazifasi qonunlarni qabul qiliş bilan bir qatorda ularning amalda qanday işlayotganini örganiş, huquqni qöllaşdagi muammolarni aniqlaş va zarur hollarda qonunçilikka özgartiş kiritişdan iborat. Bu borada qonunçilik taşabbuslarini ilgari suriş bilan birga, qabul qilingan qonunlarning amalda qanday işlayotganini çuqur tahlil etiş, ularning ijrosidagi muammolarni aniqlaş va bartaraf qilişga qaratilgan ta'sirçan parlament nazoratini ta'minlaşimiz zarur. Zero, qonunning kuçi inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalda qay darajada himoyalay olayotganida namoyon böladi.

Korrupsiyaga qarşi kuraşda profilaktika va javobgarlik muqarrar

Zulayho AKRAMOVA, qömita a'zosi:



– Korrupsiyaga qarşi kuraşiş faqat huquqbuzarlik uçun jazo tayinlaşdan iborat emas. Uning ildizlarini bartaraf etiş, davlat boşqaruvida oçiqlik va hisobdorlikni ta'minlaş ham muhim. Şu bois bu sohadagi islohotlarning tub mohiyati profilaktikani kuçaytiriş, huquqiy mexanizmlarni takomillaştiriş va jamoatçilik iştirokini kengaytirişga qaratilgan.

Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev raisligida 2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarşi kuraşiş böyiça milliy kengaşning kengaytirilgan yiğilişi ötkazilib, ustuvor vazifalar belgilab berilgandi. Unda korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga tösiq ekani ta'kidlanib, uning oldini olişda davlat organlari bilan birga jamoatçilikning ham faol iştirokini ta'minlaş zarurligi ilgari surilgandi.

Pirovardida "korrupsiyaning oldini oliş klasteri" joriy qilinib, vakolatli idoralar, içki nazorat tuzilmalari, ilmiy muassasalar va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kuçaytirişga e'tibor qaratildi.

Uşbu vazifalarning qonunçilikdagi ifodasi sifatida 2026-yilda korrupsiyaga qarşi kuraşiş samaradorligini oşirişga qaratilgan qonun qabul qilindi. Jumladan, 2026-yil 22-iyundagi "Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga korrupsiyaga qarşi kuraşiş samaradorligini oşirişga, korrupsiyaga oid jinoyatlar uçun javobgarlik muqarrarligini ta'minlaşga qaratilgan qöşimça va özgartirişlar kiritiş töğrisida"gi Qonun korrupsiyaga oid jinoyatlar uçun javobgarlik muqarrarligini ta'minlaş, tegişli idoralar faoliyatini takomillaştiriş, korrupsiya haqida xabar beruvçilarni himoyaga oliş va davlat xaridlaridagi korrupsiyaviy xavflarni kamaytirişga xizmat qiladi.

Qonunçilikda içki korrupsiyaga qarşi nazorat bölinmalarining vakolatlarini kuçaytiriş, davlat organlari va hududlar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarini şakllantiriş, davlat xaridlarida belgilangan narx çegaralariga rioya etmaganlik uçun mas'uliyatni oşiriş kabi mexanizmlarga ham e'tibor qaratilgan. Bu çoralar korrupsiyaviy xavflarni oldindan aniqlaş va ularning oldini olişga qaratilgan.

Qömitamiz oldidagi muhim vazifalardan biri – korrupsiyaga qarşi kuraşişga oid qonunlar amalda qanday işlayotganini örganiş, aniqlangan muammolarni bartaraf qiliş böyiça takliflar işlab çiqiş va mas'ul idoralarning bu boradagi javobgarligini oşirişdan iborat. Qolaversa, ta'sirçan parlament nazoratini izçil davom ettirib, qonunlar ijrosini baholaşda aniq natijalarga tayaniş, tizimli kamçiliklar aniqlangan hollarda ularni bartaraf qiliş çoralarini körişimiz zarur.

Huquqiy tarbiya maktabdan boşlanişi kerak

Abdulhakim EŞBOYEV, qömita a'zosi:



– Qonun ustuvorligi adolatni ta'minlaş, fuqarolarning huquq va erkinliklarini işonçli himoya qilişning asosiy şartidir. Mamlakat taraqqiyotining barqarorligi ham qonun oldida tenglik, sud mustaqilligi va inson huquqlarining amalda ta'minlanişiga boğliq.

Prezidentimizning mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligiga bağişlangan tantanali marosimdagi nutqida kelgusi taraqqiyotning ustuvor yönalişlaridan biri sifatida sud mustaqilligini kuçaytiriş va qonun ustuvorligini umumiy qadriyatga aylantiriş belgilandi. Bu vazifaning beşinçi milliy dastur doirasida ilgari surilgani sohadagi islohotlarning izçil davom ettirilişini körsatadi.

Qonunga hurmat va huquqiy madaniyatni kundalik hayot me'yoriga aylantiriş, huquqiy tarbiyani maktabdan boşlab yölga qöyiş, fuqarolar va tadbirkorlarning qonuniy kafolatlarini kuçaytirişni taqozo etadi.

Qonun ustuvorligi insonning öz huquqlarini bilişi, ulardan erkin foydalanişi va buzilgan huquqlari işonçli himoya qilinişida namoyon böladi. Fuqaro adolatga erişişiga, tadbirkor esa qonuniy kafolatlar asosida faoliyat yuritişiga işonişi kerak. Bu işonç sud mustaqilligi va davlat organlarining qonuniylikka qat'iy rioya etişi bilan mustahkamlanadi.

Nutqda kiberjinoyatçilik, giyohvandlik va odam savdosining oldini oliş çoralarini kuçaytiriş, "yaşirin iqtisodiyot" va uyuşgan jinoyatçilikka qarşi kuraşni yangi bosqiçga kötariş, ayollar va bolalar huquqlarini kamsitişga qarşi qat'iy çoralar köriş vazifalari ham belgilandi. Bu esa qonunlarni hayot talablaridan kelib çiqib takomillaştiriş, huquqni qöllaş amaliyotidagi muammolarni bartaraf qiliş va mas'ul idoralar faoliyati ustidan parlament nazoratini kuçaytirişni taqozo etadi.

Qömita faoliyatida ham uşbu vazifalarni amaliy ta'minlaşga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda qonunçilik taşabbuslarining sifati, qabul qilingan normalarning amaldagi samarasi va fuqarolar murojaatlarida kötarilayotgan muammolarga huquqiy yeçim topiş muhim mezon böladi. Zero, qonun ustuvorligi har bir inson öz huquqlarini bilgani, ularni himoya eta olgani va adolat qaror topişiga işonganida mustahkamlanadi.

«Xalq sözi».

Özbekiston va Tailand ombudsmanlari örtasida fuqarolarning huquq hamda erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoyalaş, hamkorlikni yanada mustahkamlaş böyiça memorandum imzolandi.

SAMARQAND – MARKAZIY OSIYO DIPLOMATIYASINING MARKAZI

AQŞ Davlat kotibi Marko Rubio boşçiligidagi nufuzli delegatsiyaning mamlakatimizga taşrifi, Samarqandda ötkazilgan "C5+1" vazirlar uçraşuvi hamda Amerika – Özbekiston işbilarmonlik va investitsiya kengaşining ikkinçi yiğilişi ikki davlat munosabatlarini sifat jihatdan mutlaqo yangi, strategik va amaliy bosqiçga olib çiqdi. Umuman, uşbu taşrif geosiyosiy hamda geoiqtisodiy jihatdan ulkan ahamiyatga ega bölgan tarixiy voqelikka aylandi.

Munosabat

Özbekiston – Amerika iqtisodiy hamkorligining istiqbollarini baholaşda sarmoya hajmi bilan bir qatorda, uning iqtisodiyot tarkibiga ta'siriga ham e'tibor qaratiş lozim.

Bugun dunyoda "yaşil" energetika, yarimötkazgiçlar, sun'iy intellekt va yuqori texnologiyalar işlab çiqariş poygasi ketmoqda. Bu sohaning barçasi noyob metallar – uran, volfram, mis, litiy, molibden kabilarga bevosita boğliq. AQŞ uşbu xomaşyo bozorida Xitoy monopoliyasini muvozanatlaştiriş uçun ta'minot zanjirlarini diversifikatsiya qiliş niyatida bölsa, Markaziy Osiyo, xususan, ulkan tabiiy boyliklarga ega Özbekiston uşbu zanjirning ajralmas bölagiga aylanmoqda.

Bu borada mamlakatimizning mintaqadagi örni alohida. 39 milliondan ortiq aholiga, barqaror hamda oçiq iqtisodiyotga ega bölgan, mintaqadagi barça qöşnilar bilan çegaradoş Özbekiston Markaziy Osiyo drayveridir. Yurtimizdagi islohotlar, huquqiy kafolatlar va yaratilayotgan sarmoyaviy muhit Amerika biznesi uçun Markaziy Osiyoga kirişning boş darvozasi vazifasini ötayotir.

Istiqbolli taşabbuslar paketi

Darhaqiqat, Marko Rubioning Davlat kotibi sifatidagi ilk taşrifi bir neça sabablarga köra tarixiy voqelik sanaladi. 2015-yilda Davlat kotibi Jon Kerri iştirokida ilk bor Samarqandda boşlangan format 11 yildan söng yana uşbu tarixiy şaharga qaytdi. Bu format maslahatlaşuvdan aniq investitsiyaviy va infratuzilmaviy qarorlar qabul qilinadigan nufuzli platformaga aylanganini körsatdi.

Bunday deyişimizga asoslar yetarli. Samarqand uçraşuvi şunçaki bayonotlar emas, aniq raqamlar bilan tarixga kirdi. Umumiy qiymati qariyb 12 milliard dollar bölgan



54 ta kelişuv hamda istiqbolli taşabbuslar paketi şakllantirildi. Samarqandda ötkazilgan muzokaralar klassik "win-win" (har ikki tomon manfaati) tamoyili asosida qurildi.

Jumladan, AQŞ işbilarmonlariga kafolatlangan ta'minot berildi. Amerika sanoati va texnologik kompleksi uçun zarur bölgan noyob hamda muhim minerallarga töğridan-töğri çiqiş imkoniyati paydo böldi. Qolaversa, uning aviatsiya, avtomobilsozlik, energetika, kon-ruda va IT sohasidagi gigant kompaniyalari uçun Markaziy Osiyoning eng katta bozorida yangi istiqbollar oçildi. Öz navbatida, AQŞ mintaqada şaffof va bozor tamoyillariga asoslangan mustahkam iqtisodiy modelni taqdim etmoqda. Bundan taşqari, koinotni tinç maqsadlarda özlaştiriş ("Artemida" bitimi) hamda sun'iy intellekt böyiça hamkorlik AQŞning texnologik koalitsiyasini mustahkamlaydi. Mazkur kelişuvlar Oy, Mars, kometalar va asteroidlarni tinç maqsadlarda tadqiq etiş hamda özlaştiriş sohasidagi xalqaro hamkorlik tamoyillarini belgilaydi.

Darvoqe, mamlakatimiz uşbu hujjatni imzolagan 77-mamlakat böldi. Zamonaviy dunyoda kosmik tadqiqotlar faqat fazoni örganiş bilan çeklanmaydi. Sun'iy yöldoşlar orqali aloqa, navigatsiya, iqlim kuzatuvlari, qişloq xöjaligi monitoringi, tabiiy ofatlarni baholaş va raqamli infratuzilmani rivojlantiriş imkoniyatlari kengaymoqda. Şu nuqtai nazardan, xalqaro kosmik hamkorlik Özbekiston uçun ilmiy salohiyatni rivojlantiriş, muhandislik hamda axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlaş, ilğor tajribalarni özlaştiriş uçun yangi imkoniyatlar yaratişi mumkin. Biroq xalqaro kelişuvning amaliy samarasi uning asosida qanday ilmiy dasturlar, ta'lim loyihalari va texnologik taşabbuslar işlab çiqilişiga boğliq. Universitetlar, ilmiy markazlar hamda xususiy sektor örtasidagi hamkorlikni rivojlantiriş mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanişning muhim şarti hisoblanadi.

Özaro manfaatli şeriklik

Ta'kidlaş joizki, rasmiy Vaşington bilan munosabatlarni mustahkamlaşdan Özbekiston ham manfaatdor. Mamlakatimiz yuqori texnologiyali mahsulot işlab çiqaruvçi sanoat markaziga aylantirilmoqda. Amerika sarmoyasi va texnologiyalari Çirçiqdagi hamda boşqa hududlardagi qayta işlaş korxonalariga yönaltiriladi.

E'tiborlisi, 2026 – 2030-yillarga möljallangan, qiymati 4,2 mlrd. dollarlik Muhim minerallarni

> *Samarqand muzokaralarida Özbekiston "C5+1" formatida nafaqat öz manfaatlari, balki butun mintaqaning tranzit, energetika va ekologik birligini ilgari surmoqda. Bu qöşnilarning ham global jarayonlarda ovozi eşitilişiga xizmat qiladi. Transkaspiy yönalişini rivojlantiriş hamda uni AQŞ qöllab-quvvatlayotgan loyihalar bilan tutaştiriş mintaqaning dengizga çiqiş imkoniyatlarini kengaytiradi.*

rivojlantiriş milliy dasturi xomaşyoni mamlakat içida çuqur qayta işlaşga yönaltirilgan. Özbekistonning strategik talabi esa qat'iy: "kiriş evaziga qayta işlaş" tamoyilini joriy etişdan iborat. Amerika kapitali va "DFC" hamda "EXIM" banklari mablağlari Özbekiston hududida zavodlar, ilmiy laboratoriyalar hamda yuqori maoşli iş örinlarini yaratiş şarti bilan jalb qilinişi mumkin.

Uçraşuvning haqiqiy muvaffaqiyati e'lon qilingan şov-şuvli raqamlardan köra, erişilgan bitimlarning qança qismi Özbekiston zaminida qayta işlaş sanoatini rivojlantirişi, milliy suverenitet va geosiyosiy muvozanatni saqlab qolişi hamda mamlakatning texnologik kelajagini kafolatlaşi bilan ölçanadi. Şu ma'noda, Samarqand yana bir bor Markaziy Osiyo diplomatiyasining markazi sifatida dunyo nigohida böldi.

Prezidentimiz ilgari surgan "Plug and Play" tamoyili Amerika taşrifi hamda erişilgan bitimlar ana şu muvozanatning yorqin namunasidir.

Albatta, rasmiy Toşkentning Vaşington bilan yaqinlaşuvi Rossiya, Xitoy yoki boşqa davlatlar bilan aloqalarni çeklaşni anglatmaydi. Aksinça, Özbekiston barça yirik rivojlangan mamlakatlar bilan milliy suverenitet, tenglik hamda iqtisodiy manfaatdorlik asosida birdek hamkorlik qila olişini amalda isbotlamoqda.

Mintaqaning dengizga çiqiş imkoniyati kengayadi

Dunyo e'tiboridagi Samarqand muzokaralarida Özbekiston "C5+1" biznesiga tayyor yer, infratuzilma va ruxsatnomalarga ega loyihalarni taklif etiş orqali byurokratiyani bartaraf qiladi. Töğridan-töğri investitsiyalar jamğarmasi esa xatarlarni birgalikda bölişadi. Davlatimiz rahbari tomonidan taklif etilgan 2035-yilgaça bölgan hamkorlik dasturi AQŞdagi siyosiy ma'muriyatlar almaşsa ham iqtisodiy hamda texnologik aloqalar töxtab qolmasligini kafolatlaydi. Toşkentda Vebster universiteti, Amerika texnologiyalar universiteti va Kolorado konçilik maktabi markazlarining oçilişi milliy kadrlar salohiyatini jahon standartlari darajasiga kötaradi.

Özbekistonning taşqi siyosiy falsafasi muvozanatli, köp vektorli va pragmatik diplomatiyaga tayanadi. Marko Rubioning Samarqandga formatida nafaqat öz manfaatlari, balki butun mintaqaning tranzit, energetika va ekologik birligini ilgari surmoqda. Bu qöşnilarning ham global jarayonlarda ovozi eşitilişiga xizmat qiladi. Transkaspiy yönalişini rivojlantiriş hamda uni AQŞ qöllab-quvvatlayotgan loyihalar bilan tutaştiriş mintaqaning dengizga çiqiş imkoniyatlarini kengaytiradi va geosiyosiy qaramlikni keskin kamaytiradi.

Mintaqadagi özgarişlar, Markaziy Osiyo davlatlari örtasida özaro işonç mustahkamlangani, savdo-iqtisodiy aloqalar kengayişi ham rasmiy Vaşington e'tiborini özига tortdi. Tahlillarga köra, mintaqada özaro savdo 10,7 mlrd. dollarga yetgan. Iqtisodiy ösiş sur'atlari jahon örtaça körsatkiçidan taxminan uç barobar yuqori.

Ikkinçi omil jahon iqtisodiyotidagi özgarişlar. Global ta'minot zanjirlarining qayta şakllanişi hamda xalqaro beqarorlik muqobil transport yölaklariga talabni oşirdi. Bu Transkaspiy xalqaro transport yönalişi – "Örta yölak"ning ahamiyatini kuçaytirmoqda. Özbekiston mazkur formatni investitsiyalar jalb etiş, yangi texnologiyalarni özlaştiriş va taşqi iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiyalaş vositasi sifatida köradi. Ötgan yili Amerika kompaniyalari bilan umumiy qiymati 100 mlrd. dollardan ziyod kelişuvlar portfeli şakllantirilib, ular aviatsiya, toğ-kon sanoati, moliya, tibbiyot hamda boşqa yönalişlarni qamrab oldi.

AQŞ Davlat kotibi Marko Rubioning mamlakatimizga taşrifi va Samarqand muzokaralari Özbekistonning global siyosatdagi subyektiv maqomi hamda geoiqtisodiy jozibadorligi tan olinganining yaqqol tasdiğidir. 12 mlrd. dollarlik yangi loyihalar töplami, "Plug and Play" tamoyili va 2035-yilgaça möljallangan strategik dastur şuni körsatadiki, Özbekiston – AQŞ kelajak iqtisodiyoti, yuqori texnologiyalar hamda mintaqaviy xavfsizlikni birgalikda barpo etayotgan uzoq muddatli strategik şeriklarga aylandi.

Samarqand zaminida asos solingan mazkur yangi bosqiç Markaziy Osiyoda tinçlik, barqarorlik, şuningdek, ilğor texnologik taraqqiyotning mustahkam poydevori bölib xizmat qilişi, şubhasiz.

Zafar ŞAKAROV,
iqtisodiyot fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent.

SPORT xabarlari

«Aiçi-Nagoya – 2026» kundaligi:

PARASPORTÇILARIMIZ TARIX YOZMOQDA

Yaponiyaning Aiçi prefekturasi va Nagoya şahrida ötayotgan V yozgi Paraosiyo öyinlarida Özbekiston delegatsiyasi vakillari yuksak natijalarni qayd etib, mamlakatimiz parasporti tarixida yangi sahifa oçmoqda.

Vakillarimiz "Aiçi-Nagoya – 2026" öyinlarida ketma-ket rekordlar örnatib, turli sovrinli örinlarni qölga kirityapti. Keçagi kun dasturining ilk medali ayollar örtasida "T11" klassi böyiça uzunlikka sakraş finalida Asila Mirzayorova tomonidan qölga kiritildi. U 5,04 metr natija bilan oltin medal orqali Paraosiyo öyinlari rekordini örnatdi. Mazkur yönalişda Ş. Temirova esa 4,73 metr natija bilan bronza medaliga sazovor böldi. Şu tariqa Asila Paraosiyo öyinlarida bittadan oltin, kumuş va bronza – jami 3 ta medalga ega çiqdi.



Para yengil atletika yönalişi böyiça erkaklar örtasidagi "F32" klassida bulava uloqtiriş bahslarida ham hamyurtlarimiz muvaffaqiyatli iştirok etdi. Xususan, Xurşid Qodirov 36,11 metr natija bilan oltin medalni qölga kiritdi va Paraosiyo öyinlari rekordini örnatdi. S. Botirov esa 33,67 metr natija bilan bronza medalga loyiq topildi.

Yadro uloqtiriş ("F32") bahslarida ham Xurşid 9,40 metr natija bilan oltin medalga sazovor böldi. Hamyurtimiz uşbu natija orqali Paraosiyo öyinlari rekordini ham yangiladi.

Ayollar örtasida nayza uloqtirişning "F46" klassida Ş. Yigitaliyeva 44,99 metr natija bilan oltin medalni qölga kiritdi. Şahinaxon uşbu natija orqali Paraosiyo öyinlari rekordini ham yangiladi. Yana bir vakilimiz H. Qudratullayeva mazkur yönalişda 41,91 metr natija qayd etib, kumuş medalga ega çiqdi.

Para velosportning şosse yönalişi böyiça ayollar örtasida "T1–2" klassidagi guruh poygasida M. Pardaboyeva 1 soat 8 daqiqa 27 soniya natija bilan oltin, O. Hamdamova esa 1 soat 8 daqiqa 35 soniyada marrani zabt etib, kumuş medal bilan taqdirlandi.

Şuningdek, ayollar örtasida yadro uloqtirişning "F35" klassida Özbekiston vakillari ikki medalga sazovor böldi. D. Ahmadxonova 9,05 metr natija bilan kumuş, Z. Fayzullayeva esa 7,57 metr natija bilan bronza medalni delegatsiyamiz hisobiga qöşib qöydi.

Natijada Özbekiston delegatsiyasi hisobidagi medallar soni 45 ta oltin, 48 ta kumuş va 50 ta bronza, jami 143 taga yetdi. Hamyurtlarimiz umumjamoa hisobida uçinçi örinni egallab turibdi. Bu natija mamlakatimiz parasporti tarixida Paraosiyo öyinlarida qayd etilgan eng yuqori körsatkiçdir.

Futbol:

ÖRTOQLIK BAHSLARIDAGI RAQIBLAR MA'LUM

2027-yilning yanvar oyida Saudiya Arabistonida bölib ötadigan Osiyo kubogiga tayyorgarlik körayotgan futbol böyiça Özbekiston milliy terma jamoasi 9 – 17-noyabr kunlari FIFA xalqaro öyinlar oynasida ikki uçraşuv ötkazadi.



Dastlab 12-noyabr sanasida Toşkentdagi "Paxtakor" stadionida Valeriy Karpin boş murabbiyligidagi Rossiya terma jamoasi mehmon böladi. Eslatib ötamiz, bu jamoalarning özaro ikkinçi bahsi. Bundan 4 yil avval Özbekiston mezbonligida keçgan bellaşuv 0:0 hisobi bilan tugagan.

Ikkinçi nazorat uçraşuvi 17-noyabr kuni Qatarning Doha şahrida Saudiya Arabistoniga qarşi taşkil etiladi. Bahs Toşkent vaqti bilan soat 20:30 da boşlanişi rejalaştirilgan.

Sunnatilla ISLOMOV
(«Xalq sözi») tayyorladi.

DUNYO HAFTA IÇIDA

PREZIDENT XALQQA MUROJAAT BILAN ÇIQADI

Qozoğiston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 28-oktyabrda Qozoğiston xalqiga Murojaatnoma bilan çiqadi. Bu haqda u özining "X" ijtimoiy tarmoğidagi sahifasida ma'lum qildi.

"28-oktyabrda tuşga qadar, har yilgi an'anaga muvofiq, Qozoğiston xalqiga Murojaatnomamni e'lon qilaman. Hozirda uşbu muhim hujjat matni ustida işlayapman", deb yozdi Qosim-Jomart Toqayev.

ENG KUÇLI ARMIYALAR ÖNTALIGI

"Global Firepower" 2026-yil uçun e'lon qilgan reytingda birinçi örinni AQŞ egallagan. Undan keyingi örinlar Rossiya va Xitoyga nasib qildi. Hindiston törtinçi örinni saqlab qolgan, Janubiy Koreya esa beşinçi poğonada qayd etildi.

Kuçli öntalikka, şuningdek, Fransiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Turkiya va Italiya kirgan. Reytingning eng quyi örinlarida esa Markaziy Afrika Respublikasi, Beliz va Butan turibdi.

Mualliflar 60 dan ortiq omillar – şaxsiy tarkib soni, texnika miqdori, moliyaviy imkoniyatlar, logistika, tabiiy resurslar va geografiyaga e'tibor qaratgan. Formula qöşimça koeffitsiyentlarni ham öz içiga oladi. 2026-yildagi hisob-kitoblarga 145 ta mamlakat kiritilgan.

SARGUZAŞT SAYOHATLARI BÖYIÇA QULAY MAMLAKATLAR

"Muç Better Adventures" sayyohlik platformasida mustaqil sarguzaşt sayohatlari böyiça eng yaxşi yönalişlar röyxati e'lon qilindi. E'tiborlisi, uşbu reytingda qöşni Qirğiziston Italiya, Yaponiya, Portugaliya, Ispaniya va Norvegiya kabi mamlakatlarni ortda qoldirdi.

"Qirğiziston "Solo Adventure Travel – 2026" reytingida yetakçi böldi", dedi Qirğiziston Prezidenti Administratsiyasi Axborot siyosati xizmati rahbari Dayirbek Orunbekov. Reytingni tuzişda bir neçta muhim omillar e'tiborga olindi. Mutaxassislar sayyohlar xavfsizligi va tabiatning diqqatga sazovor joylarini baholadi. Şuningdek, toğ turizmi imkoniyatlari, sayohatning qulayligi va noyob yönalişlarning xilma-xilligi inobatga olindi.

LOLA VA BOYÇYEÇAK – «MILLIY GULLAR»

Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon mamlakatning tarixiy-madaniy merosini xalqaro miqyosda tanitiş, şuningdek, lola va siyohguş (boyçeçak)ni milliy ramz sifatida uluğlaş maqsadida farmon qabul qilgan.

"Bu gullar tojik xalqining madaniy merosi bilan çambarças boğliq bölib, Navröz bayrami va tabiatning bahorda qayta uyğonişi bilan hamohangdir. Boyçeçak bahor kelganini bildirib, xalqning tarixiy-mifologik xotirasini, poklik va adolatning tantana qilişini ifodalaydi. Lola esa xalqimizning or-nomusi va qadr-qimmatini, mamlakat tabiatining gözalligi va gullab-yaşnaşini namoyon etadi", deyiladi Tojikiston Prezidenti matbuot xizmati tarqatgan xabarda.

DUNYO AHOLISI BÖYI ÖSMOQDA

Sönggi 100 yilda dunyo aholisining örtaça böyi taxminan 10 santimetrga ösgan.

"Our World in Data" tadqiqot platformasi ma'lumotlariga köra, 1996-yilda tuğilgan odamlarning örtaça böyi 1896-yilda tuğilganlarnikiga nisbatan ança baland. Bu farq, ayniqsa, Janubiy Koreya ayollari va Eron erkaklarida yaqqol namoyon böladi. Xususan, Janubiy koreyalik ayollarning örtaça böyi 20 santimetrga, eronlik erkaklarniki esa 17 santimetrga ösgan.

Olimlar buni ovqatlaniş sifatining yaxşilanişi, kasalliklarning kamayişi, emlaşning keng tarqalişi va boşqa omillar bilan izohlamoqda. Şu bilan birga, tadqiqotçilar rivojlangan mamlakatlarda odamlarning böyi ösişi özining yuqori çegarasiga yetgan bölişi mumkinligini taxmin qilmoqda.

Internet xabarlari asosida
Şarofiddin TÖLAGANOV («Xalq sözi») tayyorladi.

Endilikda barça ta'lim taşkilotlarining pedagog (tarbiyaçi) va öquvçilari (tarbiyalanuvçilari, talabalari) bir öquv yilida kamida bir marotaba maqsadli psixologik diagnostikadan ötkaziladi.

Xalq sozi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengaşi
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengaşi

Boş muharrir Ötkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan röyxatga olingan. Naşr indeksi – 429. Buyurtma G-1042. 17 780 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qoğoz biçimi A-2. Bahosi kelişilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab oliş uçun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qölyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilişi uçun obunani rasmiylaştirgan taşkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli çop etilişiga "Şarq" naşriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toşkent şahri,
Islom Karimov köçasi, 55-uy.
Navbatçi muharrir S. Mamirov.
Musahhih Ç. Maşrabboyev.

"Şarq" naşriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon köçasi, 41. ÖzA yakuni – 23.00 Topşirildi – 00.05 1 2 3 4 5 6